

**COVID-19 NING GLOBAL IQTISODIYOTGA TA'SIRI VA DAVLATLARNING
INQIROZGA QARSHI DASTURLARINI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI**

Temirova Nozima Shuxrat qizi

Annotatsiya: Maqlada global iqtisodiyot inqiroziga COVID 19 kasalligini ta'siri va inqiroz davrida davlatlarning olib borayotgan siyosati to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Pandemiya, xalqaro savdo, davlat, qonun, koronavirus, dunyo, integratsiya, jarayon.

Pandemiya globalizatsiya jarayoniga salbiy ta'sir qilib, xalqaro savdo va integratsiya jarayonlari sekinlashuviga sabab bo'ldi. Pandemiyaga qarshi kurashish davomida jahon iqtisodiyotining kamchiliklari yaqqol namoyon bo'ldi. Xalqaro munosabatlarda an'anaviy davlatning o'rni mustahkamlanishi bilan birga xalqaro tashkilotlarning roli pasayib bormoqda. Koronavirus inqirozidan keyingi dunyo tartibi qanday bo'lishi haqida olimlar turli hil fikrlar bildirishmoqda.

Bugungi kunga kelib, butun dunyoda koronavirus bilan zararlangan aholi soni 500 mingdan oshdi, ularning to'rtadan bir qismi sog'aygan bemorlar qatorida, 23 mingdan ortiq o'lim holatlari qayd etilgan. So'nggi bir hafta-o'n kun davomida jahonda ushbu virusga chalinganlar soni kuniga 30-50 ming nafar kishiga oshmoqda. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida favqulodda vaziyat va karantin tartibi joriy qilingan, ularning soni kun sayin o'sib bormoqda. Davlatlararo fuqarolar harakatlanishini cheklanishi, ta'lif, savdo va umumiy ovqatlanish sohalarida karantin holatining joriy qilinishi hamda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida ham korxonalarining qisman karantin holatida faoliyat yuritishi koronavirusning jahon iqtisodiyotiga ta'sirini kuchaytirmoqda.

Koronavirus pandemiyasi globalizatsiya jarayoniga ham jiddiy ta'sir qildi. Pandemiyagacha bo'lgan davrda faol ravishda muhokama qilinib kelgan va diqqat markazida bo'lgan globalizatsiya mavzusi yanada faol muhokama qilina boshladи. Globalizatsiya masalasida turli hil nuqtai nazarlar mayjud. Ba'zilar uni faqat iqtisodiy rivojlanishga xizmat qilishini ta'kidlasa, boshqalar uni rivojlanishda notenglikka sabab bo'lishini ta'kidlaydi. Covid-19 pandemiyasi jahon hamjamiyatini globalizatsiya jarayoniga o'zgacha yondashishga, unga nisbatan o'z pozitsiyalarini qayta ko'rib chiqishga majbur qildi. Karantin chekllovleri tufayli yopilgan chegaralar, erkin harakatlanishga qo'yilgan ta'qiqlar, uzilib qolgan yetkazib berish zanjirlari va eksport chekllovleri dastavval globalizatsiya koronavirus qurbaniga aylanishi mukinligi haqidagi fikrlar paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Pandemiya global ta'minot zanjirlariga bo'lgan haddan tashqari qaramlik tahdidlarini, davlatlarning xalqaro birbiriga bog'liqligining salbiy taraflarini namoyon qildi. Pandemiyagacha bo'lgan davrda tovarlar, xizmatlar, kapital, insonlarning xalqaro bog'liqligi ijobjiy natijalarga olib kelgan bo'lsa, koronavirus inqirozi davrida xalqaro bog'liqlikning mavjud xavflari to'lig'icha namoyon bo'ldi. Har bir davlat virus bilan bog'liq noaniqlik sharoitida o'z manfaatlari uchun, o'zi harakat qilishni boshladи, asosiy urg'u xavfhatarlarga qarshi milliy miqyosda qarshi turishga berildi. Xalqaro darajada davlatlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik masalasi keyingi o'rnlardagi masalaga aylandi.

Dunyo bo'ylab koronavirus yuqtirganlar soni oshib borar ekan, AQShdan tortib Osiyo va Yevropagacha fond birjalarida narxlar tushib ketdi. Dunyo iqtisodiyotiga yetkazilgan zararni inqiroz cho'qqisidan o'tilganidan so'ng, umumiy tarzda hisoblash mumkin bo'ladi. Iqtisodiyotga pandemianing o'zi emas, balki u bilan bog'liq cheklovlar salbiy ta'sir qilmoqda. Biroq, amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, qat'iy choralarni ko'rmaslik falokatli oqibatlarga va ko'plab qurbanlarga olib kelishi mumkin. Bunday murakkab sharoitda iqtisodiyotni imkon qadar qo'llab-quvvatlash va uning tezda tiklanib olishiga umid qilish asosiy maqsadga aylanadi.

Genri Kissinjerga ko'ra, koronavirusdan so'ng dunyo butkul boshqacha ko'rinishga ega bo'ladi. Olim vaziyatni Ikkinchiji jahon urushi davri bilan taqqoslaydi. Sobiq diplomatning fikricha, virus keltirib chiqargan siyosiy va iqtisodiy tartibsizlik uzoq davr saqlanishi mumkin va hech bir davlat yangi virusni yakka o'zi yenga olmaydi. Vashington bu vaziyatda virusga qarshi global qarshilik ko'rsatishni kuchaytirishi va shu bilan birga liberal dunyo tartibini saqlab qolishga harakat qilishi lozim. Albatta, Kissinjerning ko'plab fikrlari to'liq asosga ega. Biroq, Xitoy pandemiyaga qarshi kurashda qat'iy tartib-intizom va o'zi yaratgan milliy vaksinalari orqali yakka o'zi samarali kurasha olishini amalda isbotladi. Bu esa ba'zi mamlakatlar xalqaro hamkorliksiz ham yangi virus bilan kurasha olishi mumkinligiga isbotdir.

Amerikalik taniqli siyosatshunos Jozef Nay esa Kissinjerning nuqtai nazariga qo'shilmaydi. J.Nay fikricha, yangi koronavirus dunyo tartibiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Globalizatsiya jarayonlari virus tufayli to'xtab qolmaydi. Sababi, globalizatsiya – transport va kommunikatsion texnologiyalar evolyutsiyasi natijasidir. Shu sababli dunyoning o'zaro bog'liqligi mavjudligicha qoladi. Insoniyat XXI asrda uchinchi yirik inqirozni boshdan kechirmoqda. 11-sentyabr terakti, 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz dunyoda ko'plab yangi jarayonlar boshlanishiga ta'sir ko'rsatgan bo'lsada, dunyo tartibini butkul o'zgarishiga sabab bo'limgan. Katta ehtimol bilan yangi koronavirus pandemiyasi ham XX asrda shakllangan xalqaro tartib asoslariga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi.

Pandemianing jahon siyosatiga ta'siri haqida so'z yuritilar ekan, uning jahon iqtisodiyoti rivojiga ta'sirini ham batafsil tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Zero, siyosat va iqtisodiyot dunyo va jamiyat rivojining ikki ajralmas ustunlari hisoblanib, bir-biriga bevosita ta'sir o'tkazadi. Koronavirus inqirozi dunyo iqtisodiyotiga jiddiy ta'sir qilib, uning tizimli kamchiliklarini namoyon qildi. Inqirozning salbiy oqibatlari natijasida 2020-yil jahon iqtisodiyoti 4,3 %ga qisqardi [10]. Jahon savdosi esa 9 %ga qisqarib ketdi. Ko'plab mamlakatlarning iqtisodiyotlari kiritilgan karantin cheklovlarini sababli jiddiy zarar ko'rdi. Biznesni qo'llab-quvvatlash maqsadida berilgan „soliq ta'tillari” byudjetga soliq tushumlarining kamayishiga olib keldi. Chegaralar yopilishi oqibatida eksport hajmlari keskin kamaydi, logistika zanjirlari esa uzilib qoldi. Ayni paytda sog'liqni saqlash sohasiga katta miqdorda mablag' yo'naltirishga to'g'ri keldi. Bu esa byudjet yetishmovchiligi sharoitida ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarni og'ir ahvolga solib qo'ydi.

Jahon iqtisodiyotida Sovuq urushdan so'nggi davrda shakllangan erkin savdoga asoslangan rivojlanish hozirda sezilarli sekinlashgan. Bugungi kunda pandemiyadan keyingi ta'minot inqirozi va virus keltirib chiqargan ishonchsizlik oqibatida zaiflashgan global

iqtisodiy tizim mamlakatlarni tobora o'zini mustaqil ta'minlashga qaratilgan avtarkiya iqtisodiy modeliga murojaat qilishga majbur qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Koronavirus pandemiyasining salbiy ta'sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar to'g'risida" 2020-yil 28-maydagi PF-6002-son Farmoni.
2. Жильцов С.С. Пандемия COVID-19: глобальная перезагрузка политического и экономического развития. Проблемы постсоветского пространства. 2021;8(4):414–424. DOI: <https://doi.org/10.24975/2313-8920-2021-8-4-414-424>
3. Коноплева И.А., Коноплева В.С. ПРОЦЕССЫ ГЛОБАЛИЗАЦИИ В УСЛОВИЯХ ПАНДЕМИИ // The Scientific Heritage. 2021. №58-4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/protsessy-globalizatsii-v-usloviyah-pandemii>
4. Guan WJ, Liang WH, Zhao Y va boshqalar. Komorbidlik va uning Xitoyda Covid-19 bilan kasallangan 1590 bemorga ta'siri: A milliy tahlil. Eur Respir J. 202
5. The Coronavirus Pandemic Will Forever Alter the World Order, URL: <https://www.wsj.com/articles/the-coronavirus-pandemic-will-forever-alter-the-world-order-11585953005>